

INSON HUQUQLARI VA ERKINLIKLARINI HIMOYA QILISHDA – QONUN USTUVORLIGI

Xidirov Furqat Shukurullayevich

Annotatsiya: Insonning qonuniy manfaatlari, huquq va erkinliklarini ta'minlashda qonun ijodkorligi, mamlakatda demokratik islohotlarni kuchaytirish, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi, qonun hujjatlari monitoringi instituti, "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik markazi va boshqalar.

Abstract: Legislation to ensure the legitimate interests, rights and freedoms of a person, strengthening democratic reforms in the country, the Human Rights Ombudsman of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, the National Center for Human Rights of the Republic of Uzbekistan, the Institute for Monitoring Legislative Documents, the Public Center "Social Opinion", etc.

Аннотация: Законодательство по обеспечению законных интересов, прав и свобод человека, укрепление демократических реформ в стране, Уполномоченный Олий Мажлиса Республики Узбекистан по правам человека, Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека, Институт мониторинга законодательных документов, Общественный центр «Общественное мнение» и др.

Tayanch tushunchalar: Insonning qonuniy manfaatlari, huquq va erkinliklarini, qonun ijodkorligi, islohotlarni kuchaytirish, milliy markaz, qonun hujjatlari monitoringi instituti, "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik markazi va boshqalar.

Mamlakatimizda demokratik yangilanishning bugungi bosqichidagi eng muhim yo'nalishlaridan biri – bu qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquq va qonuniy manfaatlari ishonchli himoya qilishga qaratilgan. Bularning barchasiga Konstitutsiya va qonunlarimizda belgilab qo'yilgan talab va tamoyillarga amaliyotda og'ishmay rioya qilish orqali erishildi.

Bugun inson huquqlari har qanday jamiyatning eng muhim konstitutsiyaviy instituti hisoblanadi. Bu institut shaxsning huquqiy maqomini tartibga soluvchi, unga ta'sir ko'rsatish usullari va choralarini, siyosiy huquqlardan erkin foydalanish va ushbu jarayonda ishtirok etish imkoniyatlarini himoyalash va amalga oshirishning yuridik kafolatlarini o'rnatadi.

Inson huquqlari murakkab va ko'p qirrali bo'lib, inson huquqlari va erkinliklari kafolati uchun kurash qadim-qadimdan mavjud bo'lib kelgan. Bugungi kunda ham uning dolzarbligi kamaymagan, mohiyati o'zgarmagan. Inson huquqlari va erkinliklari

insoniyat mavjudligining, birgalikda yashashning asosi bo‘lib, mavjud barcha dinlar, madaniyatlarga xos bo‘lgan tinchlik hamda taraqqiyot asosi, o‘zaro ahillik va bag‘rikenglik an‘anasini o‘zida mujassamlashtiradi. Bu borada ma‘naviyati yuksak va olijanob xalqimiz o‘z oldiga, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida belgilanganidek, fuqarolarning tinchligi va milliy totuvligini ta‘minlash maqsadini qo‘ygan.

Inson huquqlari odamning tug‘ilishi va inson huquqlariga oid huquqiy normalarning yaratilishi bilan bog‘liq bo‘lib, shaxs va hokimiyat idoralari, ayniqsa, davlat muassasalari bilan bo‘ladigan munosabatlarning mohiyatini belgilab beradi. Inson huquqlari – huquqiy ongning o‘zagidir. Huquqiy ong darajasi – bu odamlarning huquqlardan shunchaki xabardorligi, qonunlarni bilishi bilan kifoyalanmaydi. Bu eng avvalo, qonunlarga rioya etish va ularni so‘zsiz bajarish, qonunga itoatkorlik, huquqni va odil sudlovni hurmat qilishdir.

Mukammal qonun hujjatlar huquqiy madaniyatni yuksaltirishning muhim sharti, huquqiy demokratik davlat qaror toptirishning zaruriy belgisi hisoblanadi. Shu bilan birga, qonunchilik hayotiy amaliyot bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi lozim. Bunda qonunlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilish kuchiga ega bo‘lishi kerak.

Insonning qonuniy manfaatlari, huquq va erkinliklarini ta‘minlashda qonun ijodkorligi so‘zda yoki qog‘ozda emas, amalda, izchil va tizimli ravishda, yuksak huquqiy ong va madaniyat, demokratik qadriyat va prinsiplarga sodiqlik bilan amalga oshiriladi.

Qonun ijodkorligi – mamlakatda demokratik islohotlarni kuchaytirishga, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning huquqiy asoslarini yuksaltirishga, bir so‘z bilan aytganda, qonun ustuvorligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu o‘rinda, davlatning mavjud bo‘lishi ham aynan qonunlarning ustunligini ta‘minlashga bog‘liqdir.

Inson huquqlari muayyan jamiyatda yashayotgan fuqaroning mazkur jamiyatda tutgan o‘rni demakdir. Shuning uchun inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash huquqiy davlat qurishning muhim maqsadi hisoblanadi. Har bir rivojlangan mamlakatlarda inson manfaatlari, huquq va erkinliklari sohasida asosiy qonun hisoblangan Konstitutsiyada Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining deyarli barcha tamoyillari va qoidalari singdirilgan. Bir so‘z bilan aytganda, inson huquq va erkinliklarni ta‘minlash, davlat tuzilishini demokratlashtirish, bozor islohotlarini chuqurlashtirish, xususiy mulkni, tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznes manfaatini himoya qilish zarur huquqiy kafolatlarni yaratib berishga, ayniqsa, barcha islohotlarimizning bosh yo‘nalishi va samaradorligining pirovard natijalarini belgilab beradigan inson omili va mezoniga jiddiy e‘tibor berilayotgani fikrimizning yaqqol isbotidir. Zero, istiqlolning bosh maqsadi – inson va uning hayotini ulug‘lashdir.

Inson manfaatlari, huquq va erkinliklarini himoya qilish va o‘rganishda inson huquqlari sohasidagi milliy institutlar faoliyati ham muhim ahamiyatga ega. Bularga:

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman);

- inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy markazi;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezident xuzuridagi amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti;

- “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik markazi va boshqalar.

Ayni paytda, mamlakatimizda bunday institutlarning faoliyat olib borishi kishilar dunyoqarashini shakllantirishdagi asosiy yo‘nalishlarni, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy, huquqiy ongning xolati va mazmunini aniqlash, aholining siyosiy, huquqiy saviyasini o‘rganish va ularni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash, fundamental va amaliy tadqiqotlarni tadqiq qilish, jamoatchilik fikrini o‘rganish inson manfaatlari, huquq va erkinliklarini himoya qilishda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Boshqa bir so‘z bilan aytganda, milliy institutlar faoliyatidan ko‘zlangan maqsadlar samarasini yanada oshirish uchun har bir fuqarodan avvalombor, ularning mazmun-mohiyati va ijtimoiy ahamiyati haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lishi, shuningdek faol fuqarolik pozitsiyasini, siyosiy-huquqiy faollikni, yuksak tashabbuskorlikni, yurt taqdiri va rivojiga mas’uliyat hamda dahldorlik xisini talab etadi.

Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari tizimida eng muhim va birlamchi huquq va erkinliklar – bu so‘zsiz shaxsiy huquq va erkinliklardir. Chunki, kishining shaxsiy huquq va erkinliklari ta‘minlangandan keyingina konstitutsiya, qonun, qonun hujjatlarida mustahkamlanadigan, kafolatlanadigan va himoya qilinadigan boshqa huquq va erkinliklarni ta‘minlash uchun real shart-sharoit yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, inson hayoti haqida g‘amxo‘rlik qilish, uning dunyoga kelishidan ancha avvalroq boshlanishini va uning huquqiy poydevorini yaratish bilan bir qatorda keng qo‘lamli choratadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Bu borada onalik va bolalikni muhofaza qilishga, qo‘llab-quvvatlashga doimiy ravishda katta e‘tibor berilmoqda. Buning uchun bir qator davlat dasturlari ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilgan. Ularning bosh maqsadi bolalar o‘limini oldini olish, onalik va bolalik muhofazasi uchun zarur moddiy va ma‘naviy asoslarni yaratish, ekologiyani yaxshilash, sog‘lom avlodni tarbiyalash, tinchlik va xotirjamlikni ta‘minlash, asrash kabi buyuk maqsadlarni ko‘zlaydi. Zero, biz millatning birligini, xalqning totuvligini, jamiyatning jipsligini va inson huquq va erkinliklarini ta‘minlashda milliy qadriyatlarining qadrini oshirishda ulug‘ bobolarimiz izidan borayotgan xalqmiz. Shuningdek, milliy g‘ururi baland, o‘zligini anglagan, kelajak poydevorini mustahkamlayotgan, jahonda o‘zining mustaqil so‘zi, ovozi va o‘rniga ega halqmiz. So‘zsiz, jahonda tenglar ichida teng maqomidagi buyuk millatmiz.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi adolatlilik, odillik, halollik, oshkoralik prinsiplari asosida Inson Huquqlari Umumjahon

Deklaratsiyasi[1]ga tayanib, davlat va jamiyatda inson qadr-qimmatini va huquqlarini qaror topishini qo‘zlagan holda qabul qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlari, hozirgi va kelajak avlod oldidagi ma’suliyat, fuqarolarning jamiyatda munosib hayot kechirish, milliy totuvligimiz va tinchligimizni ta’minlash yo‘lida qabul qilinib, muqaddima, olti bo‘lim, yigirma yetti bob va bir yuz ellik beshta moddadan iborat ekanligi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqida “Asosiy qomusimiz kafili sifatida Konstitutsiya va qonunlarimiz talablarini so‘zsiz bajarish, **“inson qadri uchun”** degan ustuvor tamoyilni to‘la ro‘yobga chiqarish bundan buyon ham faoliyatimning bosh mezonini bo‘lib qoladi”,[2] degan oliyjanob so‘zlari Konstitutsiyamizning qudratini anglatadi.

Inson huquqlarini ro‘yobga chiqarish davlat organlari faoliyatining asosiy tamoyillaridan biri ekan, ushbu vazifani to‘laqonli ado etishning bir tomoni jamoat xavfsizligini ta’minlash masalasiga borib taqaladi. Bu borada *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning* “Hozirgi vaqtda dunyoda turli kuchlar o‘rtasida qarama-qarshilik va ziddiyatlar kuchaymoqda, resurslar uchun shafqatsiz kurash ketmoqda. Mintaqamizdagi tinchlik va xavfsizlikka nisbatan yangi-yangi tahdidlar paydo bo‘lmoqda”,[3] deya ta’kidlagani huquqni muxofaza qilish organlarining oldiga fuqarolarning xavfsizligini va jamoat tartibini taminlashda ma’suliyat bilan burchni ado etish lozimligi bilan bir qatorda, zamonaviy xavf va tahdidlarni oldini olish uchun puxta tayyorgarlik ko‘rish kerakligini anglatmoqda.

Hozirgi kunda ommaviy madaniyat, internet, ijtimoiy tarmoqlarning salbiy xarakterlari rivojlanishi bilan bir qatorda, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklarning zamonaviy ko‘rinishlari ko‘paymoqda. Misol uchun, milliy mentalitetimizga o‘zaro kelishmovchiliklar va buning natijasida kelib chiqayotgan turli-tuman huquqbuzarliklar, yangi turdagi jinoyatlar sodir etilmoqda. Bularning aksariyati zamirida shaxsiy va moddiy manfaat borligi achinarli albatta. Shuning uchun, hozirda jamoat xavfsizligi va jamoat tartibini faqatgina jazo choralarini kuchaytirish bilan emas, balki jamiyatni ijtimoiy-iqsodiy, ma’naviy hamda ruhiy jixatdan yuksaltirish orqali hamda davlat va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga ko‘tarish, shuningdek inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini buzmaganda holda ish orqali samarali ta’minlash mumkin.

Bu kabi jamoat xavfsizligi va jamoat tartibi masalalarini chuqur chuqur tahlil qilib hamda boshqa davlatlarning Konstitutsiyasidan farqli ravishda urf-odat va taomillarimizga tayangan holda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 14 bobi “Oila, bolalar va yoshlar” deb nomlanganligi, oila esa jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hamda oila, bolalar va yoshlar jamiyat va davlat muhofazasida ekanligi, shuningdek Konstitutsiyaviy normalarga ko‘ra, nikoh O‘zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy

qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanishi,[4] yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda qayd etilgani mazkur masalada milliy qadriyatlarga hurmat munosabatining qay darajada yuksak ekanligini ko'rsatadi.

Yana aytish mumkinki, jamoat xavfsizligini ta'minlash uchun asosiy e'tibor mamlakat yoshlarining ijtimoiy-ma'naviy holati bilan ham bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi aholisining 60 foizdan ortig'ini yoshlar tashkil etar ekan, bu yo'nalish alohida ahamiyat kasb etishi tabiiy albatta. Bu esa, jamoat xavfsizligi masalaning ijrosini ta'minlash uchun avvalambor tegishli davlat organlari va mas'ul mansabdor shaxslar tomonidan aholining yosh qatlamiga ta'lim va tarbiya berish jarayoniga alohida e'tibor berish lozimligini anglatadi. Bu borada Konstitutsiyamizda ham alohida normalar mavjud bo'lib, unga ko'ra ota-onalar va ularning o'rni bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdir ekanligi,[5] farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi, shuningdek bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlat uchun majburiyat sifatida belgilanganligi,[6] yuqorida keltirib o'tgan fikrimizni amalda isbotlaydi. Ma'lumki, yurtimizda ota-onasidan ajragan, mehrga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlash hamda bolalarga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunarga yo'naltirish kabi masalalar kelajakda ishsizlikning oldini olishga muayyan darajada xizmat qiladi. Mamlakatda ishsizlikning kamayishi esa, o'z navbatida huquqbuzarliklarning sezilarli darajada kamayishiga olib keladi. Bu masalaga Prezidentimizning avval boshdanoq alohida to'xtalgani bejizga emas. Ya'ni, 2019-yilning 19-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida bo'lib o'tgan videosektor yig'ilishida yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash masalalariga katta ahamiyat berilgani hamda ushbu tadbirda davlat rahbari yoshlar yo'nalishidagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus[7]ni ilgari surgani mazkur yo'nalishning dastlabki islohotlaridan biri bo'lib xizmat qildi.

Xususan, jamoat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq Konstitutsiyaviy normalarning boshqa tomoniga ham e'tibor berish zarur. To'g'ri, inson huquq va erkinliklarini, shuningdek uning qonuniy manfaatalarini ta'minlash va ularni o'z vaqtida samarali tarzda ro'yobga chiqarish davlat organlarining asosiy vazifasidir. Ammo, inson va fuqarolar ham jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishining kichik ishtirokchisi ekanligini ham unutmasligimiz kerak. Ya'ni, Konstitutsiyaviy qoidaga binoan, inson o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning,

jamiyat hamda davlatning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shart. Jumladan, insonning huquq va erkinliklari faqat qonunga muvofiq va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta‘minlash maqsadida zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkin.[8]

Ushbu yangi Konstitutsiyaiviy norma endilikda nafaqat huquqni muhofaza qilish organlari vakillari, balki keng jamoatchilik, borinki oddiy fuqaroning ham davlat va jamiyat manfaatlarini asrab-avaylashga birdek javobgar ekanligini Konstitutsiya darajasida belgilab qo‘yish bilan birga, amaldagi Konstitutsiya va qonunlarga fuqarolardagi xurmat munosabatini yanada oshirishga xizmat qildi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Milliy qonunchiligimizdagi jamoat xavfsizligi va tartibini saqlashga oid qabul qilingan normativ-huquqiy xujjatlar, shuningdek amaldagi qonunchilikka kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar mazkur sohani ilg‘or xorijiy tajribalar asosida isloh qilishga imkon yaratibgina qolmasdan, balki yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda belgilangan bu kabi normalarning davlat va jamiyat manfaatlari yo‘lida to‘g‘ri tatbiq etilishi uchun ham poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi// <https://constitution.uz/uz/pages/humanrights>
2. Mirziyoyev Sh. - “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz”. 06.11.2021 yil // <https://president.uz/uz/lists/view/4743>
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. // <https://lex.uz/docs/6445145>
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. // <https://lex.uz/docs/6445145>
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. // <https://lex.uz/docs/6445145>
6. Isoqova G. “Besh muhim tashabbus yoshlarga qanot”. Yangi O‘zbekiston. 18.12.2020 yil // <https://yuz.uz/news>
7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. // <https://lex.uz/docs/>